

Mamadaliyeva Fazilatxon Sheralibek qizi

*Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo'limi
ekologiya mutaxassisligi 1-bosqich talabasi*

Annatatsiya: *Chiqindilar haqida umumiy ma'lumotlar, xulosalar va takliflar hamda so'ngi yillarda atrof muhitga chiqindilarning ta'sir ortib bormoqda. Ushbu maqolada chiqindilar to'g'risidagi qonunlar, farmonlar, qarorlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *chiqindi, farmon, qaror, ekologik texnologiya, utilizatsiya, yashil makon.*

Annotation: *General information, conclusions, and proposals regarding waste, as well as the increasing impact of waste on the environment in recent years. This article presents laws, decrees, and resolutions concerning waste.*

Keywords: *waste, decree, resolution (or decision), ecological technology, utilization, green space (or Green Makon)*

Аннотация: *Общие сведения, выводы и предложения об отходах, а также о возрастающем в последние годы воздействии отходов на окружающую среду. В данной статье приведены законы, указы и постановления, касающиеся отходов.*

Ключевые слова: *отходы, указ, постановление, экологическая технология, утилизация, зеленая зона*

Kirish

Bugungi kunda tabiat va atrof-muhitni himoya qilish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror ekologik rivojlanishni ta'minlash maqsadida davlatimiz tomonidan ekologik siyosat olib borilmoqda. So'ngi yillarda maishiy chiqindilar va ularning ekologiyaga ta'sirini kamaytirish uchun qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2025 yildagi PF-56-sonli Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni qabul qilindi.[1] Xususan, "Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining 18.08.2023 yildagi reg. № MYu 3197-3 sonli buyrug'i, "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.11.2020 yildagi №748 sonli qarori, "Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash" haqida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 19.11.2019 yildagi reg. № MYu 3197 sonli buyrug'i, "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

17.04.2019 yildagi №PQ-4291sonli qarori, “Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish uchun to‘lovlarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.11.2018 yildagi №PF-5580 Farmoni shular jumlasidan. Ushbu olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni saqlash, har xil ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish va toza energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlash, barqaror rivojlanishni ta‘minlashdan iborat.[2]

Butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimizda aholi soni ko‘paymoqda har yili qattiq maishiy chiqindi 10 mln. tonna hosil bo‘ladi, bu ko‘rsatkich 2030 yilga borib 16-17 mln. tonnani tashkil etishi kutilmoqda. Bunday katta hajmdagi chiqindilarni joylashtirish uchun qo‘shimcha yer maydonlari, tashishga texnikalar jalb etish, to‘lgan poligonlarni ko‘mish kabi ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Jahon tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda aholi xonadonlari maishiy chiqindilarni saralab rangli qopli paketlarga joylab qo‘yadi, hamda sanitar tozalash xizmatlaridan keng foydalanishadi. Chiqindilarning to‘planish hajmining muntazam ravishda o‘sishi va ularni utilizatsiya qilish vositalarining yetishmasligi respublikamizning ko‘pgina shaharlarida muammolarga sabab bo‘lmoqda va ularning o‘rtacha me‘yorlari bevosita uy-joy fondida aholi jon boshiga yiliga o‘rtacha 240-328,5 kgdan to‘g‘ri kelmoqda [3].

Chiqindilarni qayta ishlash chiqindilarni boshqarish siyosatida eng muhim chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash masalasiga alohida e‘tibor berilmoqda. Birinchidan, respublikamizda chiqindilarni qayta ishlash jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy va infratuzilmaviy muammolar mavjud. Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda tushgan mablag‘lar miqdori chiqindilarini qayta ishlash bo‘yicha to‘liq mintaqaviy infratuzilmani yaratishga imkon bermaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishida maishiy chiqindi to‘plash qamrovini 95% ga, qayta ishlash hajmini 40% ga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. [4]

Biroq, chiqindilarni qayta ishlash sohasida quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

Respublika hududida 2019-yil holatiga ko‘ra, umumiy quvvati yiliga 894 ming tonna qattiq maishiy chiqindilarni qaytda ishlaydigan 183 ta korxona mavjud. Taqqoslash uchun, Fransiyada 2,3 mln tonna quvvatga ega 300 dan ortiq korxona faoliyat yuritadi. Shu sababli mazkur rag‘batlantirish xalqaro moliya institutlarning imtiyozli mablag‘lari hisobidan amalga oshirib kelinmoqda.[5] Shu sababli mazkur rag‘batlantirish xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘lari hisobidan amalga oshirib kelinmoqda.

Ikkinchidan, chiqindilarni qayta ishlash sohasida raqobat muhitini yaratish, chiqindilardan qayta ishlangan mahsulotlarga nisbatan talabni rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud emas.

Chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish maqsadida quyidagilar taklif etildi:

- chiqindilar sohasiga oid huquqbuzarliklar uchun undiriladigan jarimalar, ruxsatnoma va litsenziya uchun to'langan mablag'lar, xorijiy va mahalliy grantlar, subsidiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan va faqat chiqindilarni boshqarish dasturlarini amalga oshirish uchun sarflanadigan chiqindilarni boshqarish jamg'armasini tashkil etish;
- chiqindilardan qayta ishlangan mahsulotlarga nisbatan talabni rag'batlantirish mexanizmlarini, shu jumladan, davlatning "yashil xaridi" tizimini ishlab chiqish;
- qoldiq chiqindilarni joylashtirish uchungina poligonlar faoliyatiga ruxsat berish, poligonlar ochishni taqiqlash;
- qayta ishlanmagan chiqindilarni ko'mishni taqiqlash;
- Shvetsiya tajribasidan kelib chiqib, chiqindilarni yoqish va ulardan muqobil energiya manbalari olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- chiqindilarni qayta ishlash sohasida ekotexnoparklar tashkil etish;
- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subektlarga ko'rsatilayotgan lizing xizmatlari ko'lamini yangi ekologik texnologiyalar, chiqindilarni boshqarishni optimallashtirish uchun mashina va uskunalarni sotib olish nuqtayi nazaridan kengaytirish;
- chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini maqsadli qurish (modernizatsiya qilish), texnologik qayta jihozlash uchun ekologik to'lovdan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;
- chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasida turli xil chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq atrof-muhitga yetkazilgan zararga qarab tabaqalashtirilgan soliqqa tortish tizimini joriy etish;
- maqsadli investitsiya loyihalari, shu jumladan chiqindilarni qayta ishlash kompleksini yaratish uchun kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash;
- chiqindilarni qayta ishlashning yangi texnologiyalarini o'zlashtirgan korxonalarga soliq imtiyozlarini qo'llash;
- ikkilamchi moddiy resurslardan tayyorlangan mahsulotlarga nisbatan QQSni bekor qilish.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, inson tabiatning ajralmas bir bo'lagi. Tabiatimizni asrab - avaylash bugun har qachongidan muximroqdir. Har bir insonda ekologik bilim ko'nikmalrni, ekologik ongni shakillantirsh bugungi kunda eng muhim dolzarb muammolardan biridir va atrof-muhitdan oqilona foydalanish va tabiatga do'stona munosabatda bo'lish, har bir insonning burchidir. Kam chiqindili texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-7445858>
2. Tursunov X.T. Ekolojiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. -T.: Saodat RIA, 1997.
3. Ro'ziyeva I.D., Buriyev S.S., N.Shakirov "O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindi (QMCH)larning atmosfera havosi,o'simlik va hayvonat dunyosi,yer va suv resurslariga ta'sirini baholash".Toshkent-2024 yil Sarvar print nashriyoti.
4. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. -Qarshi: Nasaf, 2003.
October, 2022
5. Chiqindilarni qayta ishlash davr-talabi, nurjaxon odilovna raxmonova
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/maishiy_chiqindilar_qanday_tashiladi
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, PF-60-son Farmoni. www.lex.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4845-son Qarori. Toshkent sh., 2020-yil 29-sentabr. www.lex.uz